

BUDJET-SOLIQ BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Tilabov Nasrulla Tashmurotovich

*TDIU "Moliya va moliyaviy texnologiyalar"
kafedrası dotsenti, i.f.n.*

Tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri bo'lib, davlat budjeti barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tadbirkorlar yangi ish o'rinlarini yaratish, soliq tushumlarini oshirish va innovatsiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy faoliyatni rivojlantiradi. Shu bilan birga, davlat budjeti tadbirkorlikdan olinadigan soliqlar va daromadlar orqali moliyalashtiriladi.

Mazkur tadqiqot ishida tadbirkorlikni rivojlantirish O'zbekistonning budjet-soliq siyosatidagi so'nggi o'zgarishlar tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi hisobga olinib, davlat byudjetini barqaror daromadlar bilan ta'minlashga xizmat qilish tendensiyalari hamda tadbirkorlikni rivojlantirish va byudjetning barqarorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish jarayonlari tahlil etildi va bu borada tegishli xulosalar tavsiya etildi.

Bu borada 2025 yil uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to'g'risidagi Qonunga [1] asoslanib, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun amalga oshiriladigan moliyaviy siyosat, o'z navbatida, budjetning barqarorligini ta'minlashning muhim vositasi sifatida qaralmoqda.

Mazkur qonuniga ko'ra, mamlakatda iqtisodiy o'sishning asosiy manbalaridan biri sifatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va uni rivojlantirish davlatning moliyaviy siyosatining ajralmas qismi bo'lib, budjet barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Bu qonun asosida, budjet barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun muhim vositadir. Soliq imtiyozlari, infratuzilma rivoji, raqobatbardoshlikni oshirish kabi chora-tadbirlar orqali tadbirkorlikni rivojlantirish, davlat budjetiga daromadlarni ko'paytirish, iqtisodiy o'sishni tezlashtirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.

"Tadbirkorlikni rivojlantirish – biz uchun strategik vazifa. Bizning tayanchimiz ham, suvanchimiz ham, eng katta kuchimiz ham shu sohada mujassam. Shu bois tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash markazdan tortib eng quyi bo'g'ingacha-barcha rahbarlarning kundalik ishi bo'lishi shart. Ayniqsa, joylarda hokimlar har bir tadbirkor bilan ko'proq muloqot qilib, korxonalarga borib, ularning dardi bilan yashashi kerak. Biz katta iqtidor egalari bo'lgan biznes vakillarini asrashimiz, avaylashimiz zarur. Ular biz uchun juda qadrlı insonlar", – dedi Shavkat Mirziyoyev [2].

Ushbu jihatdan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha jamoatchilik kengashi tuzilgan. Bu

kengash davlat va tadbirkorlar o'rtasida ko'prik bo'lib, aniq takliflarni bildirib kelmoqda. Joriy yilning o'zida tadbirkorlar faoliyati uchun g'oyat muhim bo'lgan 5 ta qonun, 101 ta farmon va qarorlar qabul qilindi [3].

Ayniqsa, budget-soliq siyosatida muhim qarorlardan biri 2024 yil 27 dekabr kuni Prezidentning tadbirkorlar bilan o'tkazgan uchrashuvi ana shunday muloqotlardan biri bo'lgandi. Unda tadbirkorlar sohaga bo'lgan qarashlarini ochiq bayon qilib, takliflarini bildirishdi. Quvonarlisi, avvallariday imtiyoz emas, barcha uchun teng sharoitga doir takliflar yangradi. Ko'tarilgan masalalarni atroflicha o'rganish natijasida 27 dekabr kuni "Tadbirkorlar uchun teng sharoitlar va adolatli raqobat muhitini ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-229-sonli Farmon imzolandi [4].

Bu farmon raqobat muhitini sog'lomlashtirish, tadbirkorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ularning ish faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga asos bo'lishi mumkin. Tadbirkorlar bilan muloqot orqali davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan bunday ishlar kelgusida tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Bu borada davlat moliyasini boshqarish tizimini yangi bosqichga olib chiqish va byudjet intizomini yanada mustahkamlash, soliq-byudjet tizimining shaffofligini oshirish, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'laridan foydalanish samaradorligi va natijadorligini oshirish, Davlat byudjetini o'rta muddatli davr uchun rejalashtirishning zamonaviy usullarini joriy etish yuzasidan aniq chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Hamma biladiki, har yili yil yakunida keyingi yil uchun soliq-byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari hamda byudjet parametrlari tasdiqlanadi.

Bugungi yig'ilishimizdan maqsad ham soliq kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlar hamda 2025 yilda soliq siyosatidagi yangiliklarni sizlarga etkazishdan iborat.

Xususan, 2024 yil 24 dekabrda O'zbekiston Respublikasining "2025 yil uchun Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-1011-son), "Soliq va byudjet siyosatining 2025 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonuni [5] (O'RQ-1014-son) hamda "O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-1013-son) [6] qabul qilindi.

Mazkur 1-jadval bo'yicha 2025 yil uchun O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatida ham bir qator o'zgarishlar joriy etildi. Jumladan;

- **1-yo'nalishda** aholi va tadbirkorlarga qo'shimcha imtiyozlar berish, ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va investision muhitni yaxshilash bo'yicha;
- **2-yo'nalishda** byudjet daromadlari barqarorligini ta'minlash bo'yicha;
- **3-yo'nalishda** ochiq muloqotdagi belgilangan vazifalar ijrosi;
- **4-yo'nalishda** esa boshqa o'zgarishlar sababli markur o'zgartirishlar natijasida soliq qonunchiligiga kiritilgan mazkur o'zgartirishlar mamlakatimizda tadbirkorlikka yanada erkinliklar berish hamda ularning rivojlanishi hisobiga soliq tushumlarini ko'payishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasining 2022-2024-yillarda davlat byudjeti daromadlari va 2025-yilda Davlat budjeti daromadlari prognozi

Solliq turlari	ijro		Kutilma	prognoz	o'sish, foizda
	2022	2023	2024	2025	
Davlat budjeti daromadlari,jami	201,9	231,7	271,0	308,5	13,8
<i>YIMga nisbatan, foizda</i>	<i>20,3</i>	<i>19,4</i>	<i>19,2</i>	<i>18,9</i>	
Bevosita soliqlar	64,4	73,1	87,5	100,3	114,6
Foyda solig'i	37,7	40,8	48,9	54,8	112,0
Aylanmadan olinadigan soliq	2,5	2,4	2,9	3,5	118,3
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	24,3	29,9	35,6	42,0	117,9
Bilvosita soliqlar	71,4	83,3	89,8	104,7	116,5
QQS	52,2	57,9	60,7	71,8	118,3
Aksiz solig'i	13,5	15,8	19,4	21,4	110,3
Bojxona boji	5,7	9,6	9,8	11,5	117,6
Resurs soliqlari	23,9	28,1	36,0	38,7	107,5
Mol-mulk solig'i	4,0	5,1	6,8	7,7	113,4
Yer solig'i	5,3	6,9	8,2	9,2	112,6
Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	13,9	15,3	20,0	20,7	103,1
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0,7	0,8	1,0	1,2	114,0
Boshqa daromadlar	42,1	47,2	57,7	64,9	112,4

*Muallif tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy web saytidan foydanilgan holda yaratilgan

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlikni rivojlantirishga, investitsiyalarni jalb qilishga va barqaror soliq tizimini yaratishga qo'yidagi xulosa hamda takiflarni tavsiya etamiz:

1. Soliq imtiyozlari va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasida aholi va tadbirkorlarga berilgan qo'shimcha imtiyozlar ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, yangi biznes boshlashni osonlashtiradi va kichik hamda o'rta biznesning rivojlanishiga turtki beradi. Bu o'zgarishlar iqtisodiyotda innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi va yangi ish o'rinlari yaratadi.

2. Investitsiya muhiti yaxshilanishi borasida soliq siyosatidagi o'zgarishlar investitsiya muhiti va biznes muhitining yanada yaxshilanishiga olib keladi. Soliq imtiyozlari va engillashtirilgan soliq qonunlari xalqaro investorlarni jalb qiladi,

bu esa to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimini oshiradi va mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga yordam beradi.

3. Byudjet daromadlarining barqarorligi borasida O'zgarishlar davlat byudjetining barqarorligini ta'minlaydi va soliq yig'imi samaradorligini oshiradi. Tadbirlar, shu jumladan, soliq bazasining kengayishi va yangi soliq to'lovchilarni jalb qilish, davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

4. Ochiq muloqot va soliq tizimidagi oshkoralik borasida ochiq muloqot va soliq tizimidagi oshkoralikni ta'minlash tadbirkorlarga o'z faoliyatlarini yanada samarali boshqarishga imkon beradi. Bu, o'z navbatida, soliq tizimiga bo'lgan ishonchni oshiradi va biznesni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining "2025 yil uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to'g'risida"gi 2024 yil 24 dekabr O'RQ-1011-sonli Qonuni.<https://lex.uz/ru/docs/-7277618>

2. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2024 yil 20-dekabr kuni mamlakatimizdagi faol tadbirkorlar bilan uchrashdi. Videoselektor shaklida o'tgan muloqotda sohani qo'llab-quvvatlash bo'yicha yil yakunlari va 2025 yilga mo'ljallangan rejalar muhokama qilindi. <https://president.uz/oz/lists/view/7778>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha jamoatchilik kengashi. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/12/30/council-of-business/>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlar uchun teng sharoitlar va adolatli raqobat muhitini ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2024 yil 27 dekabr PF-229-sonli Farmon. (<https://t.me/uzchamber/15695>)

5. O'zbekiston Respublikasining "Soliq va byudjet siyosatining 2025 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi 24.12.2024 yildagi O'RQ-1014-sonli Qonuni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7279923>

6. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 24.12.2024 yildagi O'RQ-1013-sonli Qonuni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7279803>

7. www.lex.uz - O'zbekiston qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi

8. www.imf.uz - Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti

9. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali

10. www.ach.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hisob palatasi sayti

11. www.soliq.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti

12. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti

13. www.customs.uz - O'zbekiston Davlat bojxona qo'mitasi sayti

14. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank sayti